

**XAMRAQULOVA FARIDA MAMASOLIYEVNA**

Andijon davlat chet tillari instituti,  
fransuz tili nazariyasi va amaliyoti kafedrası o'qituvchisi

## **ALEKSANDR DYUMA IJODI ROMANTIZM ADABIYOTI KONTEKSTIDA**

Ma'lumki, har bir madaniyatning rivojlanishi uning boshqa madaniyatlar bilan qanday aloqada bo'lishiga bog'liq. Madaniyatlarning gullab-yashnashida tarjima katta rol o'ynaydi. Shu nuqtai nazardan chet el adabiyoti yirik vakillarining ijodini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Buyuk fransuz yozuvchisi Aleksandr Dyuma shunday adiblardan biri hisoblanadi. Respublikamizda chet el adabiyotshunosligining rivojlanishi bilan fransuz adabiyotining turli masalalari yurtimiz olimlarining qator tadqiqotlarida o'rganilgan.

Jumladan, adabiyotshunos N. T. Paxsaryan o'zining "Romantizm: два века осмысления" (Kaliningrad, 2003) nomli risolasida fransuz xalq romantizmi va unda Aleksandr Dyumaning o'rnini haqida fikr yuritadi. Uning fikricha, adabiyotshunoslikda romantizm adabiyoti uzoq va chuqur tadqiq qilingan bo'lib, ayni paytda bu adabiyotga elitar adabiyotning bir qismi sifatida qaralgan.

Fransiya romantizm adabiyoti klassitsizmga qarama-qarshi qo'yiladi. Shuningdek, klassitsizm adabiyoti romantizm uchun muhim fundament tayyorlaganini ham unutmaslik kerak. Voqelikni erkin individuallashtirilgan holda tasvirlash, buyuk shaxslar portretini yaratish, va eski, qotib qolgan qarashlarni tanqid qilish kabi xususiyatlar klassitsizm adabiyoti davrida shakllangan. Taniqli adabiyotshunos olim A.V. Karelskiyning yozishicha, romantizm adabiyoti nafaqat estetik tamoyillarning rang-barangligi va ijodiy individuallikni namoyon etgan, balki bu jihatlarni amaliyotga ham tatbiq etgan. Bu adabiyotning taraqqiyotidagi muhim qadam edi. Shuni ta'kidlash kerakki, XX asrning oxirgi o'n yilliklarigacha yozilgan tanqidiy maqolalar romantizm adabiyotining yuqori cho'qqisi bo'lgan asarlar tahliliga bag'ishlangan. Bu davr adabiyotining asosiy xususiyatlari haqida XX asrning 60-70 yillarida bir qator yaxshi tadqiqotlar o'tkazilgan. Adabiyotshunoslar ommaviy adabiyot "mahsulotlari" to'g'risida aniqroq va neytralroq atamalar qo'llay boshladilar. "Паралитература" (paraadabiyot) atamasi shular jumlasidandir. Bu atama adabiyotda va jurnalistikada roman-feletonlarning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Aynan shu sababli fransuz romantizm adabiyotining yirik vakili Aleksandr Dyumaning adabiyotga, ijodga bo'lgan munosabati tubdan o'zgardi. Uning romanlari adabiyotshunoslarning tadqiqot ob'ektiga faol kirib keldi. A. Dyumaning "Qirolicha Margo", "Uch mushketyorlar", "Graf Monte Kristo" kabi asarlari kitobxonlarni larzaga soldi va ularning eng sevimli asarlariga aylandi. Aynan shu asarlar tufayli romanlar adabiyotning ommaviyligini ko'rsatuvchi vosita sifatida qaraladigan bo'ldi.

Bu paytgacha A. Dyuma romantizm adabiyoti safiga jiddiy tarzda kiritilmagan edi. Dyuma bu voqealar sodir bo'lgunga qadar fransuz dramaturgiyasining yetakchilaridan biri bo'lgan. Dyuma romanlarining paydo bo'lishida, ayniqsa buyuk romannavis Valter Skott ijodining muhim o'rnini bor edi. Bu davrda asosiy e'tibor umuman tarixiy romanlarga emas, balki aynan romantizm adabiyoti namunalari bo'lgan tarixiy romanlarga qaratildi. Dyumaning tarixiy romanlari aslida romantizm adabiyoti davridagi tarixiy romanchilik qoliplariga sig'maydigan, uni bir qadar "sindirgan" asarlar edi. Adabiyotshunoslar ta'kidlashicha, romantizm adabiyoti davrida tarixiy romanlar qisqa davr ichida paydo bo'ldi. Bunga Vinining "Sen-Mara" (1824)idan boshlab Gyugoning "Parij momohavo ibodatxonasi" (1831)gacha bo'lgan asarlarni

kiritish mumkin. Aleksandr Dyuma esa hech bir qolip va hisob-kitoblarga sig‘maydigan tarixiy romanlarni yarata boshladi. Bu asarlarda badiiy to‘qima va tarixiy voqelik noan‘anaviy tarzda qo‘shilganligi bilan ajralib turadi.

«Roman populaire» (ommaviy roman) muayyan tarixiy haqiqat yoki zamonaviy voqealar bilan bog‘liq yoki bog‘liq emasligidan qat‘i nazar, adabiyotshunoslar tomonidan kam o‘rganilgan mavzulardan biri edi. Ammo taniqli fransuz roman tadqiqotchisi J. Allenning «Popular French Romanticism» (Ommaviy fransuz romantizmi) nomli monografiyasida adolat bilan ta‘kidlaganidek, bunday asarlarga zamondoshlari qanday qaragan bo‘lsalar, biz ham shunday qarashimiz kerak.

Demak, unda yangi davr shahar madaniyatining bir bo‘lagini ko‘rishimiz lozim. Bu madaniyatda vatanparvarlik qo‘shiqlari, sevgi-muhabbat taronalari, ommaviy xalq qo‘shiqlari va gotik romanlari an‘analari mujassamlashgan. Shuning uchun ham «populer romantizm»ni “xalq romantizmi” deb tarjima qilish maqsadga muvofiqdir. Fransuz tilidagi «roman populaire» degani bu o‘rinda “ommaviy roman” emas, balki “xalq romani” deb tushunish kerak. J. Tortelning ko‘rsatishicha, bu birikma aslida fransuzlardagi «chanson populaire» yoki «conte populaire» atamaları bilan ma‘nodoshlikka ega bo‘lib, folklor janrlaridan farqlanadi. Ammo ular orasida o‘ziga xos quyidagi mushtarakliklar mavjud:

Bunday asarlarni yaratishda hammualliflar, ya‘ni jamoa ishtirok etadi va ularning asarni yaratishdagi ishtirokini aniq belgilash qiyin bo‘ladi;

Bu asarlar ko‘pincha taxalluslar ostida yoki muallifi ko‘rsatilmagan holda yaratiladi, ya‘ni anonim asarlar bo‘lib chiqadi. Masalan, D. Bondening “Fantomas” asarini keltirish mumkin;

Asar yaratishdagi tasvir vositalari: epitetlar, takror, va metaforalarning qayta-qayta qo‘llanilishi kabilar.

Aslida “xalq romani” zamonaviy televizion rubrikada qo‘llaniladigan “xalq kinosi”ga yaqin keladi. Bu “xalq romani”ning yangi sharoitda, yangi adabiy jarayondagi ko‘rinishi ekanligini ham e‘tirof etish kerak. Bunday asar o‘quvchilarning talab-ehtiyojlariga javob berishi talab qilinadi. Asarning qahramonlari ham o‘quvchilarning orzusidagi, ularning maqsadlariga mos keladigan bo‘lishi lozim. Qahramonlarning asar oxirida vafot etishi yoki omon qolishi ham o‘quvchiga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bu to‘g‘risida taniqli adabiy tanqidchi A.M. Buaye shunday degandi: "1840-1850 yillar orasida ayollar konsieji xonasida, erkaklar esa kafelarda birgalikda roman-feletonlarni o‘qish uchun to‘planishardi.”

Badiiy adabiyotni jamoa bo‘lib o‘qishning yana bir foydali tomoni shundaki, ba‘zi o‘qishni bilmaydigan, savodsiz kishilar ham ovoz chiqarib o‘qilayotgan asarlardan zavq olish imkoniga ega bo‘lgan. Bu “xalq romani”ning yana bir ijobiy jihati edi. R. Lefer o‘z davridagi bunday asarlarning qahramonlariga alohida e‘tibor berib, ularni «singulier commun» (yakka qahramon) deb ta‘riflagan.

Fransuz romantizmi, V. Gyugo ta‘rifiga ko‘ra, hayotda bo‘ladigan har qanday narsa san‘atda ham bo‘ladi, degan qoidaga asoslangan. Bu fikrlar ommaviy adabiyot tushunchasiga o‘tishda muhim qadam bo‘ldi”.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Aleksandr Dyuma. Les trois mousquetaires. – Paris: Gallimard, 1978.

2. Tortel J. Le roman populaire // Entretiens sur la paralittérature. – Paris: Éditions du Seuil, 1970. – P. 55.
3. G'. Salomov. Adabiy tanqid va badiiy tarjima. – Toshkent: Fan, 1983.
4. N. T. Raxsaryan. Romantizm: два века осмысления. – Kaliningrad: Издательство КГУ, 2003.